IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Boshlang'ich sinflarga savod o'rgatish davri

Tojinorova Rushana

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich 206-guruh talabasi

Annotatsiya: Hozirgi davirda boshlang'ich sinf o'quvchilariga savod o'rgatishning o'ziga yarasha qiyinchiliklari mavjud. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish davrida vujudga keladigan qiyinchiliklar, ularga qulayliklar yaratish, savod o'rgatishning asosiy maqsad va vazifalari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Savod o'rgatishning tayyorgarlik davri, harflarni o'qishga o'rgatish, nutqiy faoliyatini shakillantirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

O'qish savodxonligi metodikasi fani o'quvchilarning tovush va harflarni o'rgatish jarayonini osonlashtirish, qulaylashtirish bilan birga o'rganishdan maqsad va vazifalari nima ekanligining mazmunini ham o'zida ifodalaydi, shuningdek, husnixatga o'rgatish, o'qishga o'rgatishda kontekstdan foydalanish birinchi o'ringa qo'yiladi. O'quvchi grammatik mavzularni o'rganib boorish bilan birga nutqini, tafakkurini, dunyoqarashini, ruhiy imkonyatlarini, ijodiy qobilyatini cheklanmaganlik darajalarini ham anglab boradi.

Savod o'rgatish davrining dastlabki birinchi haftasi o'quvchilarni savod o'rgatishga tayyorlash uchun ajratilib, ''Alifbegacha bo'gab davr'' deb ataladi. Bu davrda o'qituvchi bolalarni dastlab maktab hayoti, uning tartib – qoidalari, darsda, tanaffusda o'zlarini qanday tutishlari xususida tushuntirish olib boradi.

O'qituvchi har bir bolaning eshitish, ko'rish organlaridagi kamchiliklari diqqatining tarqoq emasligini sinchiklab o'rganib, ko'rish, eshitish quvvati zaifroq, shuningdek, past bo'yli o'quvchilarni oldingi partalarga o'tqazadi.

O'quvchilar gap, bo'g'in, so'z, tovush bilan amaliy tanishtiriladi. Bolalarning eshitish va so'zlash qobilyatini mantiqiy fikrlashini o'stirishga doir, shuningdek, o'qituvchining ovoziga ergashib she'rlar yodlash, hikoyalar mazmunini aytib berish, rollarga bo'lish kabi mashqlar o'tqaziladi.

Tayyorgalik davri bilan bog'liq muhim narsa shundan iboratki, o'quvchi maktabga kegunicha maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorgarlik davrida harflar bilan tanishib, o'qishni o'rganib olgan bo'lishi mumkin.

Bunda o'quvchilarning diqqatini harflar ustida ishlashning ijodiy tomoniga – so'z o'yinlari qiziqarli topshiriq, rasmli ko'rgazmalar va matn yaratsh kabi topshiriqlarga qaratishi lozim.Bunda o'qituvchining ozgina ijodkorligi, ijodiy yondashuvi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Savod o'rgatish davrida o'qituvchilarning dars jarayonida paydo bo'ladigan muammolaridan biri so'zlarni bo'g'inga ajratish bilan bog'liq jarayondir. Biz uchun odat bo'lib ketgan o'qish texnikasi endi maktabga kelgan o'quvchilar uchun o'ta mashaqqatli bosqich ekanligini his qilolmaslik, o'quvchining xohish – istagini anglamaslik, ularga qo'yiladigan talabning me'yorda emasligi muammoning paydo bo'lish sabablaridir.

So'zlarni bo'g'inga ajratishda obrazlar bilan ishlash samarali hisoblanadi: bitta B harfi uyga berilgan vazifalarini qilayotgan edi shunda O harfining ham dars qilayotganini ko'rib qoldi O harfi uyga vazifalarini yaxshiroq qilayotganini ko'rib, B harfi O harfiga birga dars tayyorlashni taklif qildi. Ular birga dars tayyorlagani sababli misollar osonroq ishlandi, birozdan

so’ng ular yoniga L va A harflari ham keldi, ular birgalikda dars tayyorlashdi.

Shunday qilib birga dars tayyorlagani sabab 4 ta harf bir joyga yig’ilishdi:

‘’BO+LA=BOLA’’

Bunday usulni qo’llash, albatta o’qituvchidan ozgina ijodgorlikni talab qiladi.

Savod o’rgatishda o’qituvchining dastlabki vazifasi bolalarning nutq tovushlarini eshitib, bir-biridan farq qilib, ajrata olish qobilyatlarini o’stirishdan iboratdir. Buning uchun: tovushlarbi talaffuz qilish: tovushlarni eshitib bo’g’inlarga ajratish, shu ajratilgan tovushning o’rni (so’zning boshi, o’rtasi, oxirida kelishi)ni aniqlash; talaffuz etilishiga qarab unli, undosh, jarangli, jarangsiz undosh tovushlarni bir biridan ajrata olish; qismlari o’xshash so’zlardagi harflarni o’zgartirish bilan boshqa so’zlar yasash kabilar yuzasidan mashq ishlatiladi.

Boshlang’ich sinf dasturining so’ngi bosqichida yozuvga o’rgatish o’qish darsi bilan yozuv darsini chambarchas bog’lashni maqsad qilib quyadi o’qish darslarida o’quvchilar tovush hamda bosma harflar bilan tanishtirilsa, tovush va harflarni analiz va sentiz qilish orqali ularning nutqi o’stiriladi.

Analizda:

- biror mavzuga oid gap yuzasidan suhbat o’tkaziladi;
- suhbatda hosil bo’lgan yutuqdan o’rganiladidan tovush-harf ishtirok etkan so’zli gap ajratiladi;
- ajratilib olingan gapdan yangi tovush- harf ishtirok etgan soz ajratiladi;
- shu ajratilgan so’z bo’g’inlarga bo’linadi;

bo’g’indan o’rganilmoqchi bo’lgan tovush ajratiladi, bolalarga uni talafuz qildiriladi.

Sentizda:

-harflardan yangi o’rganilgan tovush-harf ishtirok etgan bo’g’in tuzishga oid mashq bajariladi;

- shu tuzilga bo’g’inlardan so’z tuzdiriladi;
- so’zlardan gap tuzdiriladi;

so’z, gap va bo’lanishli matn o’qitiladi.

Bugungi kunda texnika jadallik bilan rivojlanib borayotgan bir davrda zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish har bir soha egasining kundalik vazifasiga aylanib bormoqda. Faqat buning bir nechta talablariga to’g’ri yondashilishga e’tibor qaratish lozim.Foydalaniladigan material mazmuni bola yoshiga mos bo’lishi,bolaning intellektual imkoniyatlarini ochish uchun xizmat qilishi lozim.Shundagina o’quvchilarning multimediya vositalari, slaydlar va smart lavhalardan foydalanishlari foydali va samarali bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

- ‘’Ona tili va o’qish savodxonligi o’qitish metodikasi’’ M Hazratqulov, N SHavvazova
- ‘’Ona tili o’qitish metodikasi’’ Ra’no

Inog’omova, Muhabbat

Abduraimova